

**BOJXONA AUDITIDA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHNING AYRIM  
JIHATLARI**

**Abdukaxxarov Shuxrat Abidjanovich**

*Bojxona instituti Magistratura bosqichi tinglovchisi, Toshkent shahri, O'zbekiston  
Respublikasi*

**Shukrullo Lutpullayev Kudratillayevich**

*Katta o'qituvchi Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston  
Respublikasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bojxona nazoratidan o'tkazish tartibotlarini yanada soddalashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada rag'batlantirish, tadbirkorlar bilan uzviy hamkorlik qilish orqali davlat byudjetiga undiriladigan bojxona to'lovlarini to'liqligiga bojxona auditi yordamida erishish, bojxona auditining samaradorligini aniqlash masalalari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Bojxona auditi, Jahon bojxona tashkiloti, xavf profillari, xavf mezonlari, xavf indikatorlarini, bojxona auditi samaradorligi.*

**Аннотация:** *В данной статье представлены вопросы дальнейшего упрощения процедур таможенного контроля, дальнейшего стимулирования предпринимательской среды, достижения полноты таможенных платежей, взимаемых в государственный бюджет посредством таможенного аудита, а также определения эффективности таможенного аудита.*

**Ключевые слова:** *Таможенный аудит, Всемирная таможенная организация, профили рисков, критерии риска, индикаторы риска, эффективность таможенного аудита.*

**Abstract:** *This article presents issues of further simplification of customs control procedures, further stimulation of the business environment, achieving the completeness of customs payments collected into the state budget through customs audit, as well as determining the effectiveness of customs audit.*

**Key words:** *Customs audit, World Customs Organization, risk profiles, risk criteria, risk indicators, effectiveness of customs audit.*

Bugungi kunda, "Eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingga 15 mingga yetkazish; eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish; xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingga yetkazish; dunyoning 50ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil qilish; "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash" kabi ustuvor

vazifalarga yechim topish, ularni sifatli hal etish barcha oldidagi eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda.[1]

Shu bois, barcha kabi bojxona organlari ham yuqoridagi vazifalar ijrosini to'laqonli ta'minlash maqsadida tovarlarning bojxona nazoratidan o'tkazish tartibotlarini yanada soddalashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada rag'batlantirish, tadbirkorlar bilan uzviy hamkorlik qilish orqali davlat byudjetiga undiriladigan bojxona to'lovlarini to'liqligiga bojxona auditi yordamida erishish masalalarida jiddiy islohotlarni olib bormoqda. Bu esa o'z navbatida bojxona rasmiylashtiruvdan keyingi nazorat jarayonida ham yuqori samaradorlikka erishishni taqozo etmoqda.

Ushbu maqsadlarga erishish mexanizmi sifatida xalqaro standart deya e'tirof etilayotgan Xalqaro Kioto konvensiyasining 6-bob, 6.6 standarti talablari, Jahon Bojxona Tashkiloti 1 va 2-tavsiyalari, EOII Bojxona kodeksining 66, 99, 122, 131, 186 moddalaridagi talablar, Jahon savdo tashkilotining 7-moddasi 7.5-bandidagi talablar, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining "Xalqaro savdo tartib — taomillarini soddalashtirish choralari" bo'yicha 184-tavsiyalarini yodga olish o'ta muhim.

Mazkur yo'nalishda ko'plab xorijiy olimlar O.Ye.Kudryavseva, V.V.Solovyev, Ye.P.Lunevalarizlanishlar olib borib nazariy qarashlarini bildirib o'tganlar.[2] Mazkur qarashlarda ikki xil talqin mavjud bo'lib, Bojxona auditi bojxona nazoratining bir shakli ekanligi yoki, tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilganidan so'ng o'tkaziladigan alohida kompleks chora-tadbirlar shakli sifatida ko'rsatib o'tilgan. Mazkur fikrlarning asosida bojxona auditining asosiy maqsadi – eksport va import operatsiyalari asosida davlatlar chegaralaridan o'tgan tovar va transport vositalarini xavf mezonlariga asoslangan tanlab tekshirish prinsiplari asosida aniqlangan bojxona yuk deklaratsiyasida aks ettirilgan bojxona qiymati to'g'ri hamda haqqoniy hisoblanganligini aniqlashdan iboratligi namoyon bo'ladi.

Aytish joizki, mamlakatimizda ham ko'plab olimlar, ya'ni B.Hamdamiyov, S.Aripov, J.Qodirov, Sh.Azizov, M.Karimjonova, Z.Makkamovlar ham bu borada, y'ani auditni bojxona tizimida tashkil etilishiga oid ayrim ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, bojxona auditi Respublika tashqi savdo tovar aylanmasini yanada faollashtirish maqsadida TIF subyektlari manfaatlarini ichki va tashqi bozorlarda himoya qilish, ular orqali tovar yetkazib berish zanjirini uzluksizligini nazorat qilish orqali tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish, bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlar monitoringini muntazam o'tkazilishini ta'minlash lozimligi yuzasidan fikr va mulohazalarini bildirganlar. [2]

Jahon bojxona tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bojxona auditining joriy etilishi bojxonadagi rasmiylashtiruv jarayonlarini 80–90 foizga, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xarajatlarini esa salkam 15 foizga qisqartirishga olib keladi [4].

Mamlakatimizda davlat byudjetiga undirilgan bojxona to'lovlari 2022-yilda 27 foiz o'sgan. Hozirda "Xavfni boshqarish" tizimi orqali eksportda 88 foiz, importda 78 foiz tovarlar soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilmoqda. 2023-yilda sifatli nazorat tizimini o'rnatish va ish samaradorligini oshirishga qaratilgan 12 ta axborot


tizimi, 4 ta interaktiv xizmat, 5 ta mobil ilova, 18 ta axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi, bojxona postlari 2 ming 475 ta zamonaviy nazorat-texnika va kommunikatsiya vositalari bilan jihozlandi. Xavf darajasi past bo'lgan 145 mingdan ortiq eksport bojxona deklaratsiyalarini axborot tizimlari yordamida inson omilisiz o'rtacha 3-5 daqiqada rasmiylashtirishga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona auditini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2021-yil 25-fevraldagi 101-sonli Qarori asosida xavflarni boshqarish tizimiga muvofiq tanlab tekshirishga asoslangan bojxona auditi tizimi amaliyotda qo'llanila boshlangandan buyon eksportda 86 foiz deklaratsiyalar avtomatik rasmiylashtirilmoqda.[3]

Natijada, tashqi savdo muhiti liberallashtirilib, tovarlar aylanmasi hajmi oshib bormoqda.




1-rasm. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi, foizda (2021-2023-y.y.)

Shu bilan birga, davlat byudjetiga undirilayotgan bojxona to'lovlari ham ortib bormoqda.



2-rasm. Undirilgan bojxona to'lovlari, trln. so'mda (2021-2023-y.y.)

Biroq, ayrim tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan bojxona nazoratini soddalashtirilgan usullarini joriy etish orqali berilayotgan "imtiyoz"larning mohiyatini to'g'ri tushunmaslik va bojxona auditi bilan yaqindan hamkorlik qilmaslik natijasida, bojxona to'lovlaridan qochishga urinish holatlari ham ko'paymoqda va qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari ham mos ravishda ortib bormoqda.



3-rasm. Qo'shimcha undirilgan bojxona to'lovlari, foizda (2021-2023-y.y.)

Tashqi savdo aylanmasining ortishi bilan qo'shimcha undirilgan bojxona to'lovlarning o'zaro bog'liqligi korrelyatsion tahlil qilinganida Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,93ga tengligini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).




4-rasm. O'zbekiston tashqi savdosi aylanmasi bilan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari o'zaro bog'liqligi (2021-2023-y.y.)

Bundan tashqari, 2023-yilning 3 oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 221 mlrd. so'mlik qo'shimcha bojxona to'lovlari undirilib, ko'rsatkich 35 foizga ortganligini ko'rsatmoqda.[4]

Biroq, to'g'ri yondashuvga asoslangan amaliyotlarda tovarlarni chiqarib yuborilganidan so'ng bojxona nazoratini qo'llash tashqi savdo aylanmasini oshishiga va shu bilan bir vaqtda qonunlarga itoatkorlikni oshishi natijasida qo'shimcha undiriladigan bojxona to'lovlarning kamayib borishiga olib kelishi lozim.[5]

Ya'ni, ko'rsatkichlarni ekstropolyatsiya usulida prognoz qilinganida quyidagicha o'zgarishlar kasb etishi lozim.



5-rasm. Bojxona auditi bo'yicha samaradorlik prognozi

Bunda, bojxona auditi faoliyatini samaradorligini oshirish natijasida TIF qatnashchilarining qonunlarga itoat etishlari va bojxona organlari bilan hamkorligining ortishi va natijada tashqi savdo hajmining ortib borishi sharoitida bojxona to'lovlarini to'lashdan qochishga urinish holatlarining kamayish prognozi keltirilgan. Mazkur prognoz ko'rsatkichlarida korrelyatsiya koeffitsiyentining yillar davomida pasayib borishi bojxona auditining samaradorligining oshib borishi bilan izohlanadi.

Lekin, ushbu natijalarga erishish uchun Kioto konvensiyasining 6.8 standartiga muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyatda audit usullari yordamida bojxona xizmati va TIF ishtirokchilarning hamkorligiga olib keluvchi ta'sirchan choralarni qo'llash lozim.

Amaldagi nomuvofiqliklarni omilli tahlil qilinganda, quyidagi sabablarini ko'rish mumkin:

1. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 188-moddasiga asosan, bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlagan korxonalar rahbari qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, to'lovlarni bir oy mobaynida to'liq to'langan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod bo'lishi belgilangan bo'lib, bojxona to'lovlaridan qochishga uringani uchun hech qanday javobgarlik yoki shtraf to'lash belgilanmagan.

Ushbu yaratilgan qulaylik ayrim tadbirkorlarga bojxona to'lovlaridan qochishga urinib ko'rish imkonini bermoqda. Shuningdek, mazkur holatlar bojxona rasmiylashtiruvda yoki, chiqarib yuborilganidan so'ng bojxona auditi davomida aniqlanganda esa hech qanday qo'shimcha penyalarsiz avval to'lanishi lozim bo'lgan miqdordagi to'lovlarni amalga oshirmoqda. Bunday holatlar ayniqsa rasmiylashtiruvdan so'ng aniqlanganda, TIF qatnashchisiga tovarlarni davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni uzoq muddat o'zida saqlab noqonuniy foydalanish imkonini berishi, TIF ishtirokchilariga davlat byudjetiga undirilishi lozim bo'lgan to'lovlardan qochishga urinish holatlarini ortib borishiga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni bildiramiz:

1. Bugungi kunda TIF qatnashchilarini bojxona auditi bilan hamkorligini ta'minlash maqsadida audit natijasida "salbiy" baholangan tadbirkorlarni kelgusidagi

tovarlarining bojxona nazoratidan o'tkazishda Xavflarni boshqarish tizimi orqali inobatga olish tizimini yanada soddalashtirish.

Shu bilan birga, bojxona auditi natijalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qarori asosida joriy etilayotgan tadbirkorlik subyektlariga subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar berish asosi bo'lgan reytingda inobatga olish mexanizmini ishlab chiqish.

2. Filippin tajribasi (bojxona to'lovlari summasiga nisbatan 25 % peniya qo'shib to'lash belgilangan)dan kelib chiqib, tadbirkorlar tomonidan ko'p miqdorda bojxona to'lovlaridan qochish holatlari aniqlanganida, ular tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari va penya summalari ixtiyoriy ravishda to'lab berilgan holatlarda, yurituvdagi ish hujjatlarini tergov organlariga oshirmasdan bojxona organining qarori asosida soddalashtirilgan tartibda qaror qabul qilish orqali saqlovga olingan tovarlarni tadbirkor ixtiyoriga berish amaliyotini joriy etish lozim, deb hisoblaymiz. [6]

Bu o'z navbatiga davlat byudjetiga qo'shimcha pul mablag'larini undirilishiga, tadbirkorlar tomonidan bojxona qonunchiligiga amal qilish va bojxona auditi bilan hamkorlik qilishlariga olib kelsa, tovarlarni ortiqcha to'xtatib turilishini oldini olish orqali tashqi savdo aylanmasining jadallashuvi hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLARE RO'YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risidagi 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/6600413> (2024 yil 14-mart holatiga).

2. J.Qodirov, Sh.Azizov, M.Karimjonova, Z. Makkamov "Bojxona auditi asoslari", T.: 2021, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti.

3. "Hozirda eksportda 86 foiz deklaratsiyalar avtomatik rasmiylashtirilmoqda" O'zbekiston milliy ahborot agentligi. [https://uza.uz/oz/posts/hozirda-eksportda-86-foiz-deklaratsiyalar-avtomatik-rasmiylashtirilmoqda\\_550500](https://uza.uz/oz/posts/hozirda-eksportda-86-foiz-deklaratsiyalar-avtomatik-rasmiylashtirilmoqda_550500).

4. "Uch oyda 3 mingdan ziyod tadbirkorga 4 trln so'mlik bojxona imtiyozi berilgan". Kun.uz ma'lumotlari. <https://kun.uz/92167466?q=%2Fuz%2F92167466>

5. Агапова А.В. Возможности применения зарубежного опыта проведения таможенного контроля после выпуска товаров в России//Научный журнал НИУ ИТМО.Серия: Экономика и экологический менеджмент.2014. №4.С.7-13

6. Customs Audit: How Will It Affect Your Importation. <https://excelsior.ph/customs-audit-will-affect-importation>.